



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA
BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023-YIL YANVAR-AVGUST



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'idir.

2023-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

76 398
birlik



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

79,9 %



Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning ulushi

113,5 %




O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

2023-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni **95 635** birlikni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida **76 398** birlik korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ularning umumiy sonining **79,5 %** ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **113,5 %** ni tashkil etgan.

Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi ma'lum vaqt davomida iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.


Toshkent shahar bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-avgust oylarida) ¹⁾



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, **2023-yilning yanvar-avgust oylarida** bozor xizmatlari hajmi **116 795,1** mlrd.so'mga yetdi. **2022-yilning yanvar-avgust oylariga** (**118,2** %) nisbatan o'sish sur'ati **118,2** % ni tashkil etgan.


¹⁾ Bu va bundan keyingi ko'rsatkichlar metodologiyaga muvofiq har bir keyingi yil qayta ko'rib chiqilgan

Tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar -avgust oylarida)

|  | Hajmi, mlrd. so'mda | Ulushi, % da | O'sish sur'ati, % da |
|---|---------------------------|-----------------|----------------------------|
| Toshkent shahar | 116 795,1 | 100,0 | 118,2 |
| Uchtepa | 6 503,3 | 5,6 | 112,1 |
| Bektemir | 4 070,7 | 3,5 | 115,0 |
| Yunusobod | 18 620,5 | 15,9 | 123,2 |
| Mirzo Ulug'bek | 11 701,6 | 10,0 | 123,6 |
| Mirobod | 12 617,3 | 10,8 | 111,4 |
| Shayxontohur | 12 996,1 | 11,1 | 120,9 |
| Olmazor | 9 508,1 | 8,1 | 115,0 |
| Sergeli | 6 036,9 | 5,2 | 123,9 |
| Yakkasaroy | 10 123,8 | 8,7 | 115,4 |
| Yashnobod | 10 167,1 | 8,7 | 118,8 |
| Yangihayot | 1 856,5 | 1,6 | 118,7 |
| Chilonzor | 12 593,3 | 10,8 | 116,7 |

¹⁾ tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (avgust oyida)



2023-yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **39 219,3** ming so'mga yetdi. **2022-yil yanvar-avgust oylariga** nisbatan o'sish sur'ati **114,5 %** ni tashkil etgan.

2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, ming so'mda ● O'sish sur'ati, % da


Tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023-yil yanvar-avgust oylarida)

| | Hajmi, ming. so'mda | O'sish sur'ati, % da |
|------------------------|---------------------|----------------------|
| Toshkent shahar | 39 219,3 | 114,5 |
| Uchtepa | 22 037,6 | 109,3 |
| Bektemir | 71 415,9 | 106,1 |
| Yunusobod | 50 407,4 | 120,4 |
| Mirzo Ulug'bek | 35 993,7 | 120,2 |
| Mirobod | 84 003,3 | 108,9 |
| Shayxontohur | 35 920,8 | 118,9 |
| Olmazor | 23 919,7 | 112,1 |
| Sergeli | 36 900,1 | 113,8 |
| Yakkasaroy | 78 357,5 | 111,5 |
| Yashnobod | 34 807,0 | 114,2 |
| Yangihayot | 11 313,0 | 111,3 |
| Chilonzor | 46 146,0 | 114,6 |

2023-yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida moliyaviy xizmatlarning ulushi **32,4 %** ni tashkil etdi. Shu bilan bir qatorda, transport xizmatlari **9,6 %**, savdo xizmatlari **22,0 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **11,0 %**, ta'lim xizmatlari **4,5 %** darajasida qayd etildi. Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning ulushi **2,2 %** darajasida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar- avgust oylarida, % da)



Taqqoslash uchun: 2023-yilning yanvar-avgust oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi moliyaviy xizmatlar **32,4 %** ni, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlili sohasidagi xizmatlar esa **2,2 %** ni tashkil etgan.


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-avgust oylarri)

| | Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i> | Ulushi, <i>% da</i> | O'sish sur'ati, <i>% da</i> |
|--|-------------------------------|------------------------|-----------------------------------|
| Xizmatlar – jami | 116 795,1 | 100,0 | 118,2 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 12 850,1 | 11,0 | 124,0 |
| Moliyaviy xizmatlar | 37 847,1 | 32,4 | 125,9 |
| Transport xizmatlari | 11 160,4 | 9,6 | 115,6 |
| <i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i> | 5 520,2 | 4,7 | 108,6 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 5 257,0 | 4,5 | 112,0 |
| Savdo xizmatlari | 25 727,1 | 22,0 | 114,3 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 3 854,5 | 3,3 | 115,9 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 5 222,2 | 4,5 | 118,9 |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 2 445,2 | 2,1 | 104,9 |
| Ijara xizmatlari | 1 541,3 | 1,3 | 108,0 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 510,8 | 0,4 | 105,9 |
| Shaxsiy xizmatlar | 1 218,3 | 1,0 | 103,7 |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 2 559,5 | 2,2 | 88,1 |
| Boshqa xizmatlar | 6 601,5 | 5,7 | 116,6 |

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (yanvar- avgust oylarida)



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, trln. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Moliyaviy xizmatlar hajmi **37 847,1** mlrd. so'mga oshib, **10 091,6** mlrd. so'mga yetdi. Umumiy hajmida ushbu xizmatlarning ulushi **32,4** % ni tashkil etdi. Umumiy moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **125,9** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-avgust oylarida)


2023-yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **85,2** % ni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash bilan bog'liq faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **3945** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **4,1 %** ini tashkil etdi. Ulardan **3851** birlik (**4,6 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

2023-yil yanvar-avgust oylarida transport xizmatlari hajmi **11 160,4** mlrd. so'mni tashkil etib, **2022-yil yanvar-avgust oylariga** nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **115,6 %** ni tashkil etdi.


Transport xizmatlari (yanvar-avgust oylarida)



Avtomobil transporti xizmatlariga temir yoʻlda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yoʻlovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish boʻyicha xizmatlar va koʻchish boʻyicha xizmatlar kiradi.

2023-yilning yanvar-avgust oylarida avtomobil transportida koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 520,2** mlrd. soʻmga yetdi.

Avtomobil transporti xizmatlari (yanvar-avgust oylarida)



2022-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan ushbu xizmatlar hajmining **1,2** %ga oshganligi qayd etildi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **4,7** %ni tashkil etdi.

Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yoʻlovchilarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **61,3** %.

Taqqoslash uchun: **2022-yil yanvar-avgust oylarida** ushbu koʻrsatkich **61,3** % ni tashkil etgan.


Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlarini orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlarini uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

2023-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchilarning ulushi (**35,8 %** yoki **30570** birlik) yetakchilik qilmoqda. Ulardan **32,0 %** (**30159** birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etadi.

2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 2023-yil yanvar-avgust oylarida savdo xizmatlari hajmi **5 686,0** mlrd. so'mga oshib **25 727,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan ushbu turdagi xizmatlar hajmining **7,8 %** ga oshganligi qayd etildi.

Savdo xizmatlari (avgust oyida)



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

 Hajmi, trln. so'mda  O'sish sur'ati, % da


Savdo xizmatlarining umumiy hajmida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlarining ulushi **22,1 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

2023-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **4607** birlikka yetdi, shundan **4433** birligi kichik tadbirkorlik subyektlari bo'lib hisoblanadi.

2023-yilning yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **12 850,1** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, **2022-yilning yanvar-avgustiga** nisbatan o'sish sur'ati **124,0** %ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (yanvar-avgust oylarida)




“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, internet tarmog’i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta’limni va turli kasblarga o’rgatishni o’z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta’lim, shuningdek, kattalar uchun ta’lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta’lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o’xshash boshqalar kiradi.

Ta’lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o’qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko’rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Ta’lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-avgust oylarida)



2023-yil yanvar-avgust oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi **5 222,2** mlrd. so’mga yetdi. **2022-yil yanvar-avgust oylariga** nisbatan o’sish sur’ati **118,9 %** ni tashkil etdi.


▨ Hajmi, trln. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Ta’lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta’lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023-yilning yanvar-avgust oylarida** ularning ulushi **4,5 %** ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **2052** birlikni tashkil etdi, shundan **1758** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar *(yanvar-avgust oylarida)*



2023- yil yanvar-avgust oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **2 445,2** mlrd.so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **2,1** % ini tashkil etdi.

■ Hajmi, trln. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-avgust oylarida, mlrd. so'mda)

| | |
|------------------|---------|
| Toshkent shahar. | 2 445,2 |
| Uchtepa | 174,7 |
| Bektemir | 16,2 |
| Yunusobod | 256,7 |
| Mirzo Ulug'bek | 291,5 |
| Mirobod | 136,9 |
| Shayxontohur | 243,6 |
| Olmazor | 335,1 |

| | |
|------------|-------|
| Sergeli | 167,6 |
| Yakkasaroy | 248,2 |
| Yashnobod | 177,5 |
| Yangihayot | 34,5 |
| Chilonzor | 262,7 |


Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.


2023- yilning 1-avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **5305** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **5242** birlik kichik biznes subyektlaridir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-avgust oylarida)

2022-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 2023-yil yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi 1,4 mlrd. so'mga oshib, **5257,0** mlrd. so'm-ni tashkil etdi.




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023-yil yanvar-avgust oylarida)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (yanvar-avgust oylarida)



Tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi


(2023-yil yanvar-avgust oylarida, mlrd.so'mda)



¹⁾ tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ijara xizmatlari (yanvar-avgust oylarida)



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, trln. so'mda — O'sish sur'ati, % da

2022-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan ijara xizmatlari hajmi **1 291,9** mlrd. so'mga oshib, **2023- yil yanvar-avgust oylarida** **1 541,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,3** % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023-yil yanvar-avgust oylarida** avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **59,3** % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining to'lov qobiliyati va imtiyozlarining oshishiga, shuningdek, iste'molchilarning, ayniqsa AKTdan foydalangan holda zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 71-203-88-15 (25)

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlarini orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.